**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT**
**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

# AXBOROT XATI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019- yil 25-fevraldagi "Vazirlik tizimidagi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida 2019-yilda o'tkaziladigan anjumanlar rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 205-sonli buyrug'ida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Leksikografiya va dialektologiya kafedrasi tomonidan 2018-yil 8-mayda "Lisoniy meros va ona tili taraqqiyoti" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumanini tashkil etish rejalashtirilgan.

Anjuman quyidagi sho'balarda ish olib boradi:

**1. Lisoniy meros va hozirgi o'zbek adabiy tili muammolari.**

**2. O'zbek dialektologiyasining dolzarb muammolari va yechimlari.**

**3. O'zbek tilining sohaviy, bir tillik va ko'p tillik lug'atlarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari.**

**4. Lisoniy meros va ona tili o'qitish muammolari.**

Anjumanga Respublika oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy-tekshirish institutlarida, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, doktorantlar, ilmiy izlanuvchilar taklif etiladi. Taqdim etilgan maqola va tezislar anjuman sho'balari mavzusi bo'yicha joylashtiriladi.

Maqolalar 3-5 sahifadan kam bo'lmagan hajmda, 1,5 intervalda, o'ng tomondan 3 sm, chap tomondan 1 sm, yuqori va pastdan 2 sm hoshiya qoldirib, Times New Roman 14 kegl shriftda qog'ozga tushirilgan ko'rinishda va diskda (elektron variantda) topshiriladi.

Muallif familiyasi, ismi, lavozimi, maqola mavzusi matn boshida, foydalangan adabiyotlar matn so'ngida keltiriladi.

Maqolalar o'zbek, rus, ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

To'plam mualliflar mablag'i hisobidan (har sahifasi uchun 12 000 so'mdan) chop etiladi.

Tashkiliy qo'mita kelgan materiallarni saralash va tanlash huquqiga ega.

Maqolalar 2019-yilning 25-apreligacha qabul qilinadi.

Tashkiliy qo'mita manzili: Тошкент шаҳри, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy , 3-bino, 208-xona. ToshDO'TAU Leksikografiya va dialektologiya kafedrasi

**Murojaat uchun elektron manzil: sobirov-1957@mail.ru**
**Tel.: +998 90 547 78 57**

Tashkiliy qo'mita